

25-Mart, 2025-yil

ESHITISHDA KAMCHILIGI BO‘LGAN BOLALARDA NUTQ NUQSONLARINING BIRLAMCHI HARAКTERI

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Pedagogika va psixologiya fakulteti

510-21-guruh talabasi

Talabasi Rustamova Azizabonu

Annotatsiya: *Eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarni sifatli o‘qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va rehabilitatsiya qilishning shartlaridan biri bu mutaxassislarning har birining eshitish funksiyasi holatining xususiyatlarini to‘g‘ri tushunish va ularni barcha turdagi psixologik va ruhiy kasalliklar tizimida hisobga olishdir. Eshitish holatiga ko‘ra, eshitish qobiliyati zaif (eshitadigan) va karlar farqlanadi. Eshitish qobiliyatining yo‘qolishi - bu doimiy eshitish qobiliyatining yo‘qolishi, bunda hech bo‘lmaganda minimal miqdorda, lekin og‘zaki nutqni mustaqil ravishda o‘zlashtirish mumkin.*

Kalit so‘zlar: *daktil nutq, tafakkur, anomaliya, anomal bolalar, sezgi, vizual idrok, teri sezgisi, surdapedagogika, psixologik*

KIRISH

Bugungi kunda eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar va o‘smirlarga nisbatan g‘amxo‘rlik, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ta‘lim-tarbiya jarayonini ularga mos ravishda tashkil etish, sog‘lom jamiyatga tenglashtirishdek o‘ta mas‘uliyatli vazifalar bir qator me‘yoriy hujjatlarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, asosiy maqsad o‘quvchilarni mustaqil hayotga va kasb-hunarga tayyorlash, jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishlariga yordam berishdan iboratdir. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berishni erta boshlashning ahamiyati juda katta. Bu haqda faylasuf va olimlar ko‘plab fikr bildirgan. Chunki maktabgacha yosh davri inson hayotida muhim, aytish mumkinki, hal qiluvchi palla bo‘lib hisoblanadi. Bu davrda asosiy odatlar, ko‘nikmalar shakllanadi, xarakter belgilanadi, ya‘ni butun keyingi hayot asoslari quriladi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o‘rganish, eshitish idrokini rivojlantirish tizimini takomillashtirish, kasb yo‘nalishi bo‘yicha mehnat qilishlariga erishish, o‘qitishning texnik vositalarini takomillashtirish, bog‘cha va maktab ta‘limining uzluksizligini ta‘minlash, respublika bo‘yicha sog‘liqni saqlash hamda xalq ta‘limi tarmoqlari ishlarini muvofiqlashtirish, erta tashxis diagnozi muammolarini hal etishdan iboratdir. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar va kattalar uchun ta‘lim muassasalari, uning bo‘g‘inlari birligi va vorisligi asosiga kiritilib, har bir bosqich o‘z vazifalarini o‘taydi va ayni paytda keyingisi bilan bog‘liq. Eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarni sifatli o‘qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va rehabilitatsiya qilishning shartlaridan birib umumiy mutaxassislarning har birining eshitish funksiyasi holatining xususiyatlarini to‘g‘ri tushunish va ularni barcha turdagi psixologik va ruhiy kasalliklar tizimida hisobga olishdir. Eshitish holatiga ko‘ra, eshitish qobiliyatiga zaif (eshitadigan) vakarlar farqlanadi. Eshitish qobiliyatining yo‘qolishi - bu

25-Mart, 2025-yil

doimiy eshitish qobiliyatining yo'qolishi, bunda hech bo'lmaganda minimal miqdorda, lekin og'zaki nutqni mustaqil ravishda o'zlashtirish mumkin. Eshitish qobiliyatining yo'qolishi turli darajada namoyon bo'lishi mumkin - shivirlangan nutqni idrok etishning engil buzilishidan so'zlashuv nutqining hajmini idrok etishning keskin cheklanishigacha. Eshitish qobiliyatini yo'qotish bilan odam nutqni idrok etish va mustaqil ravishda o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch keladi. Biroq, hech bo'lmaganda cheklangan va buzilgan so'z tarkibini eshitishyordamida o'zlashtirishimkoniyatimavjud. Eshitishqobiliyati zaiflashgan odamlarga eshitish qobiliyati zaif bolalar deyiladi. Karlik -bu chuqur, doimiy eshitish qobiliyatini yo'qotish bo'lib, unda eshitish vositasiz nutqni idrok etish imkonsiz bo'ladi. Karlik bilan bolalar va kattalar tomonidan nutqni mustaqil ravishda egallash (nutqning o'z-o'zidan shakllanishi) mumkin emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Surpedagogika tarixiga nazar tashlasak, turli davrlarda eshitish qobiliyatidan ajralgan bolalarni tadqiqot obyekti sifatida o'rgangan olimlardan J.Kardano, V.I.Fleri, Ya.T.Speshnevlar ular orasida ma'lum tarzda murojaat etilgan nutqni tushuna oladigan bolalar borligi, agar nutq ularga qarata balandlatilgan holda aytilsa eshitishi zaif bo'lgan bolalar nutqining ma'lum qismi shakllanishi haqida qayd etishgan. V.I.Fleri bola shaxsining shakllanishi uchun atrofdaagi yaqinlari, ayniqsa, onasi g'amxo'rlik qilishi kerakligi hamda kar bolaning nutqining rivojlanishi ilk davrlardan, hattoki boshqalar nutqiga taqlid qilgan holda rivojlanishini ta'kidlagan holda “Kar-soqov bola qancha kichik bo'lsa, uning o'zlashtirish layoqati shuncha yuqori bo'ladi”, -deb yozadi olim, shuningdek, ba'zi so'zlarni bola ko'rish asosida taqlidan o'zlashtirishi lozimligini alohida qayd etgan. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning tekshiruv usullari N.A.Rau tomonidan ishlab chiqilgan. Rau bolalalarni eshituv holatiga ko'ra ikkita toifaga bo'ladi: karsoqov va zaif eshituvchi bolalar. Rau kar va zaif eshituvchi bolalar bilan ular nutqini saqlab qolish niyatida labdan o'qishga o'rgatish va savodini chiqarish uchun ma'lum korreksionlar kerakligini ta'kidlaydi. Eshitish qobiliyati pasayishining ikki turi farqlanadi, ya'ni kar-soqovlik va zaif eshitish. Zaif eshituvchi bolalarda nutqni idrok qilish va qabul qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ammo, eshitishdan foydalanib cheklangan miqdorda bo'lsa ham so'z zahirasini to'plash mumkin. Eshitish holatining pasayishi karlik darajasida bo'lsa, nutqni tabiiy o'rganishning imkoniyati bo'lmaydi. Eshtishida nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlari va imkoniyatlari, ularga ilk davrdan boshlab korreksion-pedagogik yordam ko'rsatish zaruratidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Eshitish qobiliyatining pasayishi bolaning umumiy va psixik rivojlanishiga, eng asosiysi nutqining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Eshitmaydigan va zaif eshituvchi bola maxsus o'rgatib borilmasa, u gapira olmaydi, atrofdaagilar bilan muomalada esa chegaralangan miqdordagi imo-ishoralardan foydalanadi. Bolalar kundalik hayotida kattalarga taqlid qilgan holda oddiy amaliy faoliyat turlarini bajara oladilar, turli buyumlarning funksional vazifalarini o'zlashtiradilar va ulardan to'g'ri foydalanadilar, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish malakasini egallab oladilar. Bunday bolalarga maxsus ta'lim berish shart-sharoitlari yaratilmagan holda, ular o'zgalar nutqini idrok eta olmasligi oqibatida sensor va aqliy rivojlanishi so'zlashuv nutqning

25-Mart, 2025-yil

ta'sirizsiz kechadi. Shunday qilib, eshitish qobiliyatining pasayishi va nutqiy rivojlanishning buzilishi oqibatida bolaning rivojlanishi to'xtamas-da, ancha cheklanib qoladi. Demak, bolalarning risoladagidek rivojlanishi uchun, me'yorda eshitadigan bolalardan-da ko'proq maxsus ta'lim-tarbiya sharoitlarini yaratish talab etiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga ilk yoshdan boshlab maxsus ta'lim-tarbiya berilgan holda, ularning umumiy rivojlanishidagi orqada qolishning oldini olish, mavjud nuqsonlarni korrektsiyalash va ularning har tomonlama kamol topishini ta'minlash mumkin bo'ladi. Pedagogikada tarbiya qonuniyatlari to'g'risidagi fan sifatida hodisalarning keng doirasi qamrab olinadi va turli sharoitda ta'limtarbiyani tashkil etish masalalari ishlab chiqiladi. Maktabgacha surdopedagogika fani pedagogika fanining umumiy qonuniyatlariga asoslangan holda rivojlanadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uzoq muddat davomida ko'rgazmali - obrazli tafakkur bosqichida qoladilar. Xususan, T.V.Rozonova tadqiqotlarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ko'rgazmali - obrazli tafakkurining rivojlanishidagi farq maktabgacha ta'limining boshida kuzatilishini isbotlaydi. Ko'rgazmali - obrazli tafakkurni rivojlantirish model tasavvurlarni umumlashtirish imkonini yuzaga keltiradi. Ko'rgazmali - obrazli tafakkurni shakllantirish so'zlash nutqining shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, ko'rgazmali - obrazli tafakkurni so'zlash - mantiq tafakkuri bosqichiga o'tishi sog'lom bolalarga nisbatan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda uzoq muddat davomida amalga oshadi. Bu fikrlash operatsiyalarini rivojlanishida namoyon bo'ladi. Fikrlash operatsiyalari - tizimga tashkillashtirilgan umumiy harakatlardir. Bu fikrlash operatsiyalari asta - sekinlik bilan amalga oshadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda fikrlash operatsiyalari eshituvchi bolalarga nisbatan kech shakllanadi. Analiz va sintez jarayonini rivojlanishida ham orqada qolish kuzatiladi. Bu jarayonlar yanada uzoq muddatli va sistematik tarzda amalga oshadi. Taqqoslash jarayonida farqlarni topish va o'xshatish munosabatlari amalga oshadi. I.M.Salovyov ta'kidlashicha, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda taqqoslashning quyidagi jihatlari namoyon bo'ladi: ikki predmetni taqqoslashdan birining analiziga o'tib ketish, vazifani soddalashtirish, predmetlarni taqqoslashdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning o'smirlik chog'ida taqqoslash texnikasini egallashda yutuqlar kuzatiladi, taqqoslash sifati oshadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bola[^] kattaliklarni taqqoslash, kattaliklar o'zaro munosabatini tushunish, masala mazmunidan uni ko'rgazmali ifodalash, berilgan munosabatlarda ko[^]rgazmali sharoitda ajratishni ifodalovchi bir qator masalalarni hal etishda qiyinchiliklarga uchraydi. Asosiy qiyinchiliklar matn mazmuni bo'yicha xulosa chiqarish, ma'lumotlarni analiz va sintez qilishda yuzaga keladi. Zaif eshituvchi bolalar[^] ta'lim berish uchun maxsus shart-sharoitlar yaratilishi kerak, ya'ni ular maxsus bog'cha va maktablar[^] maxsus dasto va darsliklar asosida o'qitilishi va tartiblanishi zarur. Zaif eshituvchi bolalar[^] uchun maxsus tashkil etilgan bog'cha hamda maktab intematida barcha zaif shartsharoitlar mavjud. Maxsus muassasalardagi tartibchi va o'qituvchilar bunday bolalarni tegishli ta'lim-tarbiya olishlariga yordam berishlari kerak. Eshitishning buzilishi eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarda tafakkur rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ammo intellekti har qanday yoshda saqlanib qoladi. Demak, har bolaning potentsial imkoniyatlari eshitishi me'yorda bo'lgan bola bilan bir xil. Bu imkoniyatlarni

25-Mart, 2025-yil

amalga oshirishga faqat bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish bilan cheklanib qolmasdan, nafaqat eshitish va nutqni rivojlantirishga, balki umuman butun bilish faoliyatini shakllantirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan o'quv jarayonida erishiladi. L.S. Vigotskiyning fikricha- "Jamiyatdagi karlik muammosi - ijtimoiy muammo"dir. O'ziga xos kommunikativ xususiyatlarga ega bo'lgan kar va zaif eshituvchi bolalarning ta'limi va ijtimoiy rehabilitatsiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish alohida ahamiyatga ega. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda saqlanib qolgan sezgi a'zolarining kompensator faollashuvi munosabati bilan axborotni vizual idrok etish yetakchi o'rinni egallashi ham bu omilni kuchaytiradi. Bilimga bo'lgan qiziqishni oshirishda, faqat o'rganilayotgan materialning mazmuniga tayanib bo'lmaydi, o'quv jarayoniga bolalarni jalb qilish usullari hamda mashg'ulot texnologiyalari muhim ahamiyatga ega. Kompyuter va kompyuter texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylandi.

XULOSA

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar shaxsini mahalliy va xorijiy tadqiq qilish shuni ko'rsatdiki, xorijiy tadqiqotlarda og'zaki nutqning rivojlanish darajasi aqliy qobiliyatning ham rivojlanishiga ta'siri va oiladagi eshitish nuqsoni bo'lgan bolaning hissiy aurasini va shaxsiyati rivojlanishidagi ahamiyatiga ko'proq e'tibor berilgan. Mahalliy tadqiqotlarda esa ko'pincha ta'lim tizimiga e'tibor qaratiladi. Umuman olganda, kar bolalarning oilasi bilan bo'lgan muloqatlarning passiv ishtirokchisi bo'lishi ularning hissiy, aqliy va xulq-atvor buzilishiga olib keladi. Xususan, hissiy jihatdan barqaror odam o'quv dasturini yaxshiroq o'zlashtiradi, atrofidagi odamlar bilan yaxshi munosabatga kirisha oladi va jamiyatning aktiv a'zosi bo'loladi. Zamonaviy texnologiyalar jalb qilingan har qaysi mashg'ulotlarga bolalarda qiziqish uyg'onib, ijobiy munosabatda bo'ladilar. Bu ularning motivatsiyasini oshirishga va bola uchun ham, pedagog uchun ham muhim bo'lgan natijalarga erishishda yordam beradi. Kompyuter ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratishga imkon beradi, yangicha ta'limni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni ochib, bolaning individual xususiyatlariga moslashtiriladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mo'minova L.R., Sh.M.Amirsaidova va boshqalar. Maxsus psixologiya. T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2013.
2. Mamirova Feruza Sulaymonovna (2023). STUDY AND SIGNIFICANCE OF YOUTH DEPENDENCE ON SOCIAL NETWORKS. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1 (17), 205-212.
3. Сурдопедагогика. Под ред. Е.Г.Речинской Москва. Влад. 2018
4. Марсиновская Е.Н. Особенности овладения знаниями и умениями детьми с недостатками слуха. – Л., 2019.
5. Речинская. Е.Г. Дошкольная сурдопедагогика. – М., 2018.
6. Акратова, Х. (2020). Коррекционно-педагогические обобщенности формирования навыков здорового образа жизни у детей с умственной отсталостью в

25-Mart, 2025-yil

семейных условиях. Архив Научных Публикаций JSPI, 15(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/918

7. Akramova, X. (2020). Социально-педагогическая работа с детьми дошкольного возраста. Архив Научных Публикаций JSPI, 7(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/674